



BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA VATANGA MEHR UYG'OTUVCHI PEDAGOGIK YONDASHUVLAR

PEDAGOGICAL APPROACHES TO INSTILL LOVE FOR THE HOMELAND IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ВОСПИТАНИЮ ЛЮБВИ К РОДИНЕ У УЧЕНИКОВ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Olya Haydarova Qahhorovna

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti pedagogika kafedrasi dotsenti

Primqulova Iroda Berdimurodovna

Qarshi iqtisodiyot va pedagogika universiteti 2 kurs magistranti

Annotatsiya.

Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida vatanga mehr uyg'otishning pedagogik asoslari yoritilgan. Tadqiqot davomida vatanga sadoqat, milliy g'urur va fuqarolik tuyg'ularini shakllantirishga qaratilgan zamonaviy pedagogik yondashuvlar tahlil qilingan. Maqolada o'quvchilarning yosh xususiyatlari va ta'lim jarayonining o'ziga xosliklari hisobga olingan holda, milliy qadriyatlar, vatanparvarlik tarbiyasi va shaxsiy rivojlanish omillariga e'tibor qaratilgan. Shuningdek, vatanga mehr uyg'otuvchi o'yin, qo'shiq, hikoya va boshqa metodlardan foydalanish usullari ham ko'rib chiqilgan. Mazkur yondashuvlar o'quvchilarning vatanga mehr uyg'otishidagi samaradorlikni oshirishga xizmat qilishi ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: Vatanga mehr, boshlang'ich sinf o'quvchilari, pedagogik yondashuvlar, vatanparvarlik tarbiyasi, milliy qadriyatlar, o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishi.

Abstract.

This article covers the pedagogical foundations of instilling love for the homeland in primary school students. The study analyzed modern pedagogical approaches aimed at forming feelings of loyalty to the homeland, national pride and citizenship. The article focuses on factors of national values, patriotic education and personal development, taking into account the age characteristics of students and the specifics of the educational process. It also considers methods of using games, songs, stories and other methods that instill love for the homeland. It is shown that these approaches serve to increase the effectiveness of instilling love for the homeland in students.

Keywords: Love for the homeland, primary school students, pedagogical approaches, patriotic education, national values, personal development of students

Аннотация.

В статье рассматриваются педагогические основы воспитания любви к Родине у учащихся младших классов. В ходе исследования были проанализированы современные педагогические подходы, направленные на воспитание преданности Родине, национальной гордости и гражданских ценностей. В статье особое внимание уделено факторам национальных ценностей, патриотического воспитания и развития личности с учетом возрастных особенностей обучающихся и специфики образовательного процесса. Также были рассмотрены методы использования игр, песен, сказок и других методов воспитания любви к Родине. Эти подходы доказали свою эффективность в воспитании у учащихся любви к Родине.

Ключевые слова: Любовь к Родине, учащиеся начальной школы, педагогические подходы, патриотическое воспитание, национальные ценности, личностное развитие учащихся.

KIRISH

Boshlang‘ich ta’lim o‘quvchining turmush tarzi, tartibi, ijtimoiy holati, sinf jamoasi, oila muhitdagi ahvolini o‘zgartiradi, uning asosiy vazifasi o‘qishdan iborat bo‘lib qoladi. Yangi bilim, ko‘nikma, malakalar egallashni boshlaydi. Ta’lim o‘quvchidan muayyan darajadagi uyushqoqlikni, intizomlikni, irodaviy zo‘r berishlikni, faollikni, maqsadga yo‘naltirilgan faoliyatni talab qiladi. Ixtiyorsiz xatti-harakatlar o‘rnini anglashilgan rejali, maqsadga muvofiq aqliy mehnat egallay boradi. O‘quvchi tengdoshlari bilan birgalikda muayyan bir sinf jamoasiga birlashtiriladi. Modomiki shunday ekan, sinf jamoasi va uning ahzolari bola oldiga ko‘pchilik manfaatini himoya qilish, shaxsiy istaklarini umumjamoa intilishlariga bo‘ysundirish, o‘zaro yordam, o‘zaro hurmat, o‘zaro talabchanlik, ijtimoiy javobgarlik va burch hislarini egallash vazifasini qo‘yadi. Ta’lim jarayonida o‘quvchi oldiga qo‘yiladigan talablar tobora ortib, murakkablashib boraveradi.

Ta’lim va tarbiya jarayonlarining o‘zaro bog‘liqligi hamda aloqadorligi, yahni ularni yaxlit holda tushunish zaruriyati mboshlang‘ich ta’lim o‘quvchilari uchun tashkil etiladigan ta’lim-tarbiya jarayonlarining tizimga xos xususiyatlarga ega ekanligini tasdiqlaydi. Ayrim tadqiqotchilar ta’lim va tarbiya jarayonlarini tashkil etish belgilangan maqsadlarga erishishga xizmat qiluvchi turli strukturaviy va funktsional bog‘liq bo‘lgan komponentlar majmuini ijtimoiy tizimning turlaridan biri hisoblangan pedagogik tizim sifatida tahriflaydi. Demak, o‘zaro bog‘liq hisoblangan ta’lim va tarbiya jarayonlari o‘quvchi shaxsining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi, chunki mazkur jarayonlar, birinchidan, ajdodlar tajribasining avlodlar tomonidan o‘rganilishi, ikkinchidan, o‘zlashtirilishi bo‘lib, ularning ijtimoiy hayotga qo‘shilishlarini tahminlab beruvchi yaxlit jarayon hisoblanadi. Demak, ta’lim va tarbiya

jarayonlari o‘quvchilarda shaxsiy xislatlar, insoniy fazilatlar, tushunchalar shakllanishiga hamda dunyoqarashining rivojlanishiga zarur shart-sharoitlar yaratib beradi.

Uzluksiz ta’lim tizimining muhim bosqichlaridan biri sifatida umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida ta’lim va tarbiya jarayonlari quyidagi tamoyillarga muvofiq tashkil etilishi o‘ziga xos amaliy ahamiyat kasb etadi:

- davlat ta’lim standartlari talablarining bajarilishi majburiyligi;
- o‘quvchilarda fan asoslari bo‘yicha tizimli bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishning muhimligi bo‘yicha shaxsiy tushunchalar va ehtiyojlarni rivojlanirishning zarurati;
- ta’lim va tarbiya jarayonlarini tashkil etish va muvofiqlashtirishda uzluksizlik va uzviylikni tahminlash;
- ta’lim-tarbiya jarayonlarida tizimli, korporativ, vaziyatli, refleksiv, tabaqalashgan va innovatsion yondashuv texnologiyalarini tatbiq etish asosida barcha uchun qulay ta’limiy muhitni shakllantirish;
- ta’lim va tarbiya jarayonlari ishtirokchilarining mazkur jarayon subhektlari sifatida faoliyat ko‘rsatishi zarurati, yahni ta’lim va tarbiya jarayonlarida subhektsubhekt munosabatlarining qaror topishi;
- ta’lim va tarbiya jarayonlari subhektlari faoliyatining maqsadga yo‘naltirilganligi, izchilligi va o‘zaro bog‘liqligi;
- ta’lim va tarbiya jarayonlari o‘zaro boG‘liq va aloqador bo‘lgan komponentlar majmui ekanligi;
- harakatlanish va rivojlanishga xizmat qiluvchi ichki va tashqi omillarning o‘zaro birligi;
- ta’lim va tarbiya jarayonlari yaxlit tizim sifatida tashqi muhit va boshqa tizimlar bilan o‘zaro tahsir etish xususiyatlari ega ekanligi.

Mazkur tamoyillarning mazmun-mohiyati, ahamiyati, ularga amal qilish zaruriyati ta’lim va tarbiya jarayonlarini tashkil etish hamda muvofiqlashtirishdan ko‘zlanayotgan maqsadning strategik ahamiyat kasb etishini ifodalaydi. Bu vazifalarni amalga oshirishdan ko‘zlanayotgan umumiy maqsad ham strategik xususiyatlarga ega bo‘lib, har bir vazifani alohida amalga oshirishdan ko‘zlangan maqsadlar ham mazmun-mohiyatan bir-biri bilan uzviy boG‘liq bo‘lgan strategik rejalar tizimini ifodalaydi. Umumiy maqsadga erishish yo‘nalishlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirish jarayonlarining tizimga xos xususiyatlardan kasb etishi ta’lim va tarbiya jarayonlarni o‘zaro bog‘liq hamda aloqador tarzda tashkil etish zaruratini belgilaydi.

O‘quvchi shaxsini rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan ta’lim

- mustaqil ta’lim, tarbiya
- o‘zini o‘zi tarbiya, mahlumot
- mustaqil mahlumot, rivojlanish va tarbiyaviy munosabatlar jarayonlarining tizimga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda ularni yaxlit tizimning komponentlari sifatida inobatga olish mumkin.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning o‘yin faoliyati davrida bolaning aqliy fazilatlari va shaxsiy xususiyatlari jadal rivojlanadi va shakllanadi. O‘yinda turli xil faoliyatlar mujasamlashadi, keyinchalik har bir faoliyat turi mustaqil ravishda o‘z mahnosiga ega bo‘ladi. O‘yin faoliyati ruhiy jarayonlarning ham shakllanishiga tafsir qiladi. Ayrim o‘yin turlari bolalarning barcha bo‘g‘inlariga mos kelishi mumkin, yahni jismoniy sifatlarni yaxlit holda tarbiyalashga qaratilgan o‘yinlar ham borki, ularda turli jismoniy sifatlar ketma-ket rivojlanishi mumkin.

O‘yinlardagi bunday izchillik bolaning bilim saviyasi, dunyoqarashinig kengayishi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabri Uzliksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora tadbirlari haqidagi 1059-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-iyul Umumiyl o‘rtalim muassasalarida Tarbiya fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish choratadbirlari to‘g‘risida 422-sonli qarori qabul qilindi. Tarbiya darsligida, odobnama, vatan tuyg‘usi, milliy istiqlol g‘oyasi va ma’naviyat asoslari hamda dunyo dinlari tarixi fanlarini birlashtirdi.

Tarbiya fani 1-9-sinflarda 2020-2021 o‘quv yilidan, 10, 11-sinflarda esa 2021-2022 o‘quv yilidan boshlab fanlarga ajratilgan umumiy soatlar doirasida bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etildi. Tarbiya fanining maqsadi darslik orqali o‘quvchida bilim berishdan tashqari hayotiy ko‘nikma shakllantiriladi va bosqichma-bosqich bolada maqsad qo‘yish va unga intilish ko‘nikmasini shakllantirib boradi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tarbiya darsi 1-sinfda o‘quvchi dastlab orzularini aniqlay olishni o‘rgatilsa, 2-sinfda o‘z oldiga maqsad qo‘ya olish ko‘nikmasi shakllantiriladi. 3-sinfda o‘quvchida dasturni o‘zlashtirish natijasida maqsad va orzuumidlarini amalga oshirishga harakat qilish ko‘nikmasi paydo bo‘ladi. 4-sinfda atrofda bo‘layotgan voqeа-hodisalarga sog‘lom munosabat bildira oladi, shaxs sifatida o‘zini anglaydi va o‘z xatti-harakatlarini tahlil qiladi. Bolalarni maktabgacha yoshdan boshlab o‘z ona shahri, milliy an‘analarining o‘ziga xos xususiyatlari haqida bilimlarni oshirish va uni kelajak avlodga yetkazish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri. Shuningdek, yaqinlar, qarindosh, yurtdoshlarga nisbatan mehr, saxiy munosabat, birovning qayg‘usiga hamdardlik va rahm-shafqat va ular bilan ishlash tizimi oilada axloqiy va vatanparvarlik tarbiyasi muhum ahamiyat kasb etadi. Shu munosabat bilan eng dolzarb muammolarni hal etishning dolzarbliyi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan ishlashda vatanparvarlik tuyg‘usi bolaning oilaga, unga eng yaqin odamlarga-onasi, otasi, bobosi, buvisi, aka-uka va opa-singillariga munosabatidan boshlanadi. O‘z uyiga muhabbat va mehrni o‘zining asl ma’nosida rivojlanish vatanparvarlikning birinchi boshlang‘ich bosqichi bo‘lib xizmat qiladi. Boshlang‘ich 1-2-sinflar o‘quvchilari uchun Vatan tushunchasini tushuntirish bir muncha onson bo‘lishi uchun uni o‘ziga bo‘lgan munosabatni, birinchi do‘srtlari, u boradigan bolalar bog‘chasi, uyi joylashgan ko‘chabularning barchasi bolaning o‘z uyi, uning uyi haqidagi g‘oyalarini tushuntirish va sindirishdan boshlash maqsadga muvofiq. Tarbiya fanini o‘qitishda o‘qituvchi o‘z ustida ishlashi uchun ma’naviy adabiyotlar bilan ishlash metodi muhum omil.

Masalan, Imom Buhoriyning Sahih Hadis, Alisher Navoiyning Hikmatlari, Shayh Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning Hadis va hayot, Obbiddin Mahmudovning Farzandнома, Abdulla Avloniy, Behbudiy kabi ma’rifatparvar jadid bobolarimizning ilmiy meroslaridan foydalanish muhum. Tarbiya fani keng qamrovli fan bo‘lib, fanni o‘qitish metodlari: og‘zaki, hikoya, suhbat, tushuntirish, ko‘rgazmali, monolog, dialog, keys, namoyish metodi, amaliy ishlar metodi, interfaol metodlar va boshqalar. 7 yoshdan 11 yoshgacha bo‘lgan davrda o‘quvchilarga ta’lim berishning eng maqbul shakli bu o‘yin. Boshlang‘ich sinf yoshdagi o‘quvchilarning xulq-atvorning ijtimoiy shakli oddiy taqlid qilishga qaratilgan. O‘quvchilarga turli ta’limiy o‘yinlar orqali vatanga muhabbat, kattalar hayotidan xulq-atvor normalari o‘qitiladi, qadriyatlar tushuntiriladi. 1-sinfda ko‘pincha og‘zaki, 2-3-4 sinflarda esa yozma ravishda metodlar qo‘llash tavsiya etiladi. Boshlang‘ich sinflarda zamonaviy axborotkommunikatsiya texnologiyalaridan interfaol metodlar, ta’limiy o‘yinlardan foydalanish o‘quvchilarni mustaqil fikrlash, fikriga asoslagan holda himoya qila bilish, mantiqiy fikrlash doiralarini kengaytirish fikrini bayon qilishga, o‘quvchilar hamda o‘qituvchi o‘rtasidagi faollikni oshirish orqali o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirishini faollashtirishga, ijodiy izlanish, tahlil qilish, sog‘lom muloqot, munozara, bahs olib borish ko‘nikmalari shakllanishi bilan birga ularni darslarda o‘rganganlarini hayot bilan bog‘lashga, qiziqishlarini oshirish xulosalar chiqarishga yordam beradi. Tarbiya darslarida Aqliy hujum, Fikrlar hujumi, Tarmoqlar metodi, Sinkveyn, BBB, Beshinchisi ortiqcha, 6x6x6, Bahs-munozara, Rolli o‘yin, FSMU, Kichik guruhlarda ishlash, Yumaloqlangan qor, Zigzag, Oxirgi so‘zni men aytay kabi zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash yuqori samara beradi. Mashhur fin pedagogi R.Nevanlinna bu borada shunday deydi: Yaxshi dars berishning usullari juda ko‘p, yomon dars berish usullari undan ham ko‘p; eng yomon usul zerikarli dars berishdir. Shunday ekan dars metodlarini tanlashda o‘quvchilarning psixik faoliyati, qobiliyatlarini hisobga olishimiz kerak.

1-sinf tarbiya darsligi mavzular ro‘yxatida Vatanparvarlikka bag‘ishlangan 1-mavzu: –Vatan ishonchi mavzusi 1-sinfga qadam qo‘yan o‘quvchilarning vatan tushunchasi darajasini aniqlash, sinf o‘quvchilarining bilimlarini tenglashtirish vazifalasi turadi. 11-12 mavzu: Mening mahallamda yashash yaxshi. Mavzulari ajratilgan bo‘lib bunda o‘qituvchidan pedagogik mahorat talab etiladi. So‘zning o‘rnini toppish o‘yini metodi. O‘quvchilarga she’riy parchadan tushib qoldirilgan so‘zlar alohida pasgi qatorda saqlanadi.

Masalan, , vatanim,
.....quvnab ko‘rganim.
.....dan kulganim,
.....-gulshanim. (P.Mo‘min)

Tushirib qoldirilgan so‘zlar: Vatanjonim, Ko‘zim, Istiqbol, O‘zbekiston. Muammoli ta’lim metodi. Ular odatda hikoya shaklida taqdim etiladi va ko‘pincha muammoni hal qilishni, o‘quvchilardan savolni mustaqil ko‘rib chiqishni so‘raydi, so‘ngra o‘quvchilarga uni juftlikda, nihoyat, butun sinf bilan birgalikda muhokama qilish imkoniyatini beradi. Ushbu faoliyat chuqurroq fikrlashni, muammolarni hal

qilishni yoki tanqidiy tahvilni rag‘batlantirish uchun savollar bilan ideal ishlaydi. Guruh muhokamalari juda muhim, chunki ular o‘quvchilarga fikrlash jarayonlarini ifodalash imkonini beradi.

Muammoli vaziyat usulining afzallikkleri sinfdagi barcha o‘quvchilarni jalb qilish (ayniqsa, guruhda baham ko‘rishda qiynalishi mumkin bo‘lgan faol bo‘lmagan o‘quvchilarga ovoz berish imkoniyati), o‘qituvchi uchun tezkor fikr-mulohazalarini (masalan, o‘z fikr-mulohazalarini oshkor qilish) o‘z ichiga oladi. Ushbu metod darslikdagi mavzuni o‘rganishda, yangi mavzuni mustahkamlash uchun mazkur metodni qo‘llash ijobiy natija beradi. Bunda mavzuga oid to‘rtta va taalluqli bo‘lmagan (ortiqcha) bitta so‘z (tushuncha, fikr) beriladi.

XULOSA

O‘qituvchilarining zamonaviy talablar asosida yaratilgan sharoitlardan samarali, unumli foydalanib, darslarni ilg‘or pedagogik texnologiyalar hamda axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida tashkil etilishi ta’lim-tarbiya jarayonini sifatini kafolatlaydi. Vatanparvarlik tarbiyasining maqsadi- Fuqarolarni O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Davlat Gerbi, Davlat Bayrog‘i, Davlat Madhiyasiga va jamoaviy hayot normalariga hurmat ruhida tarbiyalashdir. Ta’lim oluvchilarining boshlang‘ich sinfdanoq barkamol va shaxsiy konstitutsiyaviy huquq, burchlari amalga oshirilishini ta’minalash uchun sharoit yaratishdan iborat. Yoshlarni harbiyvatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari muntazam ravishda tizimli va ilmiy asosda tashkil etiladi. Har bir ishni muntazam amalga oshirish shu ishning maqsadi va sifat ko‘rsatgichi yuqori bardavom bo‘lishini ta’minalaydi. Maktabda vatanparvarlik tuyg‘usini va chin insoniy fazilatlarni oshirishda tarbiya, ona tili va o‘qish fanlarini o‘qitishda singdirib borishni tartibli va tizimli yo‘lga qo‘yish o‘quvchilar ongida bo‘shliq qolmay, kelajakda Vatanimizga ulkan hissasi, nafi tegadigan kadrlar bo‘lib yetishadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. A.Karimjonov, F.Ochilov “Boshlang‘ich sinflarda ta’lim tarbiya muammolarini”. Toshkent, –2020.
2. N.Ismatova Tarbiya: 1-sinf uchun darslik. 1-nashr.-T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, –2020.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabr – Uzliksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora tadbirlari haqidagi 1059-sonli qarori.
4. A.Raxmonov, Maktab o‘quvchilarida milliy vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishning asosiy vositalari. Academic research in educational sciences, 2(4), 1549- 1556b, –2021.
5. D.Rasulova “Boshlang‘ich ta’lim metodikasi”. Toshkent: «Fan va texnologiya», –2021.
6. N.Saidahmedov “Ta’limda innovatsion texnologiyalar”. – Toshkent: TDPU nashriyoti, –2019.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida vatanga mehr uyg‘otuvchi pedagogik yondashuvlar

7. M.Qodirova, G.Turg‘unova “Tarbiya nazariyasi va metodikasi”. – Toshkent:
«Ilm ziyo», –2022.